

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском	562
языках и особенности их употребления	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalozizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalozizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shliqni to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OKKAZIONAL SO'ZLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОККАЗИОНАЛЬНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF OCCASIONAL WORDS IN ENGLISH AND UZBEK

Abduraximova Feruza Boxadirovna 

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti (PhD) katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Okkazional so'zlar individual-uslubiy neologizmlar sifatida badiiy adabiyotda, muallifning his-tuyg'ularini ifodalash, stilistik bo'yoqlarni oshirish va kontekstga mos holda yaratiladi. Maqolada affiksatsiya va qo'shma so'zlar yordami bilan yasalgan okkazional so'zlar tahlil qilingan. Har ikki tilning okkazional so'zlari kontekstga bog'liq ravishda yuqori darajada emotsional-ekspressiv ma'noga ega bo'lishi ta'kidlangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвокультурологические особенности окказиональных слов в узбекском и английском языках. Окказиональные слова, как индивидуально-стилистические неологизмы, создаются в литературных произведениях для выражения эмоций автора, усиления стилистической окраски и соответствия контексту. В статье анализируются окказиональные слова, образованные с помощью аффиксации и сложных слов. Подчеркивается, что в обоих языках окказиональные слова обладают высокой эмоционально-экспрессивной значимостью, зависящей от контекста.

Abstract

This article explores the linguocultural features of occasional words in Uzbek and English. Occasional words, as individual-stylistic neologisms, are created in literary works to reflect the author's emotions, enhance stylistic nuances, and suit the context. The study analyzes occasional words formed through affixation and compound structures. It emphasizes that in both languages, occasional words exhibit high emotional and expressive meaning dependent on their context.

Kalit so'zlar: Okkazional so'zlar, lingvokulturologiya, neologizmlar, affiksatsiya, qo'shma so'zlar, emotsional-ekspressivlik, kontekstual ma'no.

Ключевые слова: Окказиональные слова, лингвокультурология, неологизмы, аффиксация, сложные слова, эмоционально-экспрессивность, контекстуальное значение.

Key words: Occasional words, linguocultural studies, neologisms, affixation, compound words, emotional-expressiveness, contextual meaning.

KIRISH

Okkazional so'zlar (ideostilema X.G'.M. termini) umumxalq tili va adabiy til lug'atida mavjud bo'lmagan, nutq jarayonida ayni bir shaxs tomonidan maxsus vaziyatda, mazmun ehtiyojidan kelib chiqib, yasali ishlatiladigan g'ayriodatiy yasalmadir. Okkazional yasalmalar barqaror, turg'un xususiyatga ega bo'lmaydi va doimiy qo'llanilmaydi. Ular uzual lug'at bilan tizimli munosabatda bo'lmaydi. "Okkazional so'z" tushunchasi so'z yasali tizimiga nisbatan emas, til lug'atiga nisbatan belgilanadi. Til lug'atiga kirmagan har qanday so'z mohiyat e'tibori bilan okkazionalizmdir [4; 91-100].

Okkazionalizm – mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizmdir [5; 74].

Okkazionalizm – individual shaxs nutqida so'z yasali shuning mavjud modellari asosida vaziyat taqozosi bilan yaratilgan yangi so'zlardir. Okkazional so'zlarning ma'nosi o'zi ishtirok

etayotgan kontekstga bog'liq bo'lishi va g'ayrioddiy, emotsional-ekspressiv o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovordir [2; 7].

Okkazional so'zlar, asosan, badiiy adabiyotda yozuvchilar tomonidan hosil qilinadi, ularning asosiy qismi umumiste'mol birligiga aylanmaydi, balki muallifning aqliy va emotsional ruhiyatini aks ettiruvchi omil bo'lib saqlanib qoladi [1; 45].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Okkazional so'zlar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar turli tillarda so'z yasash usullari va lingvokulturologik jihatlarni qamrab oladi. Xususan: L.S. Abrosimovning monografiyasida okkazionalizmlar tilni kategoriyalashtirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Unda so'z yasashning yangi usullari orqali madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq qilingan. Y.N. Antyufeyeva o'z tadqiqotlarida ingliz tilidagi yangi hosilalar va ularning ma'no shakllanishidagi o'rnini va ahamiyatini ko'rsatadi. Bu asarlar maqola uchun ingliz tilidagi o'ziga xosliklarni ochib berishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. S.I. Toshaliyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar okkazional so'zlarning mahalliy xususiyatlarini o'rganishda muhim hisoblanadi. Unda so'z yasashi affiksatsiya va kompozitsiya orqali amalga oshirilishi batafsil yoritilgan. X.Xohlyachevaning XIX asr rus tilidagi individual-so'z yasash usullari bo'yicha tadqiqoti esa tilning tarixiy rivojlanishida okkazionalizmlarning o'rnini va ularning emotsional va stilistik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, okkazional so'zlar turli tillarda emotsional-ekspressiv ma'noni kuchaytirish va kontekstga xos ma'noni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada lingvistik tahlil ya'ni o'zbek va ingliz tillarida okkazional so'zlarning tuzilishi o'rganilgan. Bu jarayonda affiksatsiya, kompozitsiya va prefiksatsiya kabi so'z yasash usullaridan foydalangan tahlil qilingan. Komparativ metod ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy ravishda tahlil qilingan. Semantik tahlil okkazional so'zlarning kontekstual va stilistik ma'nolari aniqlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Okkazionalizmlar muayyan bir nutqda (kontekstda) yaratilib, ana shu matnda yashab qoluvchi, lug'atlarda qayd etilmagan g'ayrioddiy, maromsiz, ammo maqsadga muvofiq qo'llangan shaxsiy-ijodiy leksemalardir. Okkazional yasalmalarning yasash tarzi, sababi matnning tarkibiy qismi sifatida izohlangan, sharhlangan bo'ladi [3; 136].

Okkazional so'zlar okkazional yasalmalar hamdir. Ular qisqartma, qo'shma so'zlar, affiksalar yasalmalar shaklida bo'lishi ham mumkin. *Yolvordim telbahanz, telbaomuz*. (Xurshid Davron).

Jim turing, *shovqinlanmang, uyqu ichida ul pari,*

Yurma, tek tur, ey shamol, yursang-da yur, biroz nari! (Cho'lpon "Uyqu")

Okkazional so'zlarning asosiy qismi badiiy adabiyotda, yozuvchining his-tuyg'ularini, izchil munosabatini, ichki kechinmalarini ifodalash uchun asarning emotsional-ekspressiv bo'yqadorligini oshirish maqsadida muallif tomonidan yaratiladi. Bunday so'zlar so'z yasash qoliplaridan foydalangan tarzda faqat kontekst uchun yaratiladi. Ular affikslar yordamida va so'zlarni bir-biriga qo'shish orqali kompozitsion usulda ham o'zbek va ingliz tili badiiy adabiyotida yuzaga keladi. Bunday yasalmalarni muallif lug'at tarkibiga kiritish maqsadida yaratmaydi, aksincha, o'z asarini sayqallash va estetik zavqini oshirish maqsadida hosil qiladi. O'zbek tilida affiksatsiya usulida yasalgan okkazional so'zlar:

-zor affiksi (ekin, daraxt, meva, o'simlik kabilarni bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, o'sha narsa mo'l bo'lgan joyni anglatadi) bilan hosil qilingan okkazional so'zlar:

Suhbat ketdi so'ngra bolazorlikdan. (G.Jo'raeva)

yil sayin multiqzorlarga Qushlar qo'ysa in! (Asqad Muxtor)

Ijodkor qizlarning sho'x yallari yashilzor bag'rida kamol topadi. (Guliston)

Bolazor, mevazor, tolzor ko'chalar. (Sh.Rahmon)

Men G'afur G'ulom yoki Hamid Olimjonni ularning va jumlazorlarining ko'tarinkiligi uchun ayblay olmayman. (I.G'afur)

-iston affiksi (millat, elat nomini bildiruvchi so'zlarga qo'shiladi) bilan yasalgan okkazional so'zlar:

O, O'zbekiston, asal sandig'im mening, asalistonim mening. (O.Matjon)

Yozda changistonu, qishda balchig'iston ko'chamen. (E.Vohidov)

TILSHUNOSLIK

-go'y affiksi (ish-harakat, hodisani doim bajarib turadigan ot yasaydi) bilan yasalgan okkazonalizmlar:

O'z asarida u Jamila obrazi orqali rostgo'ylik, to'g'rig'o'ylik g'oyalarini ilgari suradi. ("Turkiston")

Qachongacha rostgo'ylik bizga pand beradi, to'g'rig'o'yning ishi nega yurishmaydi? (Mushtum)

-dosh affiksi (munosabatga teng aloqador, ishtirokchi bo'lgan shaxs oti yasaydi) bilan yasalgan okkazonal so'zlar:

Bu yurakning vatandoshlari, havodoshlari, tuproqdoshlari (E.Shukur).

Aziz tuyogdoshlar, hurmatli dumdoshlar. (N.Aminov).

Aziz kulgudoshlar jamuljam bugun,... qarang, safimizda shuncha kulgikor. (T.Qo'ziboev)

O siz, bu yurakning tuyg'udoshlar, xayoldoshlari-yu, osmondoshlari. (E.Shukur)

To'yingda to'ydoshman, tirik elkadosh

G'ururimga g'ururdosh zamonga ming tashakkur (A.Oripov)

uchamiz samoda, chopar lahzalar, To'yga lahzadoshdir goho azalar. (M.Shayxzoda)

-chilik affiksi (biror bir narsa bilan belgilanuvchi ish, faoliyat, xatti-harakatni bildiruvchi ot yasaydi.)

O'sha yillar bir qurg'oqchilik, bir surg'oqchilik bo'lib eldan fayz-baraka ko'tarilgan chog'lar ekan. (Tura Sulaymon)

Qo'shma so'zlarda okkazonalizmlarning vujudga kelishi:

1. Osmon chamanida yulduzgul tering. (I.Mirzo)

2. O'z do'stini o'ylamadigan,

Ko'ngilshohning nimasi buyuk. (B.Fazliddin)

3. Chaqmoqtuyog toyimdan,

Ayirmoqchi bo'lishdi. (M.Yusuf "Ot haqida oq she'r")

4. To'xtamurod – mening erim ... u meni kechiradi. To'xtamurod. To'xtamurod, Kechimurod (Olim Otaxonov) – bunda Kechimurod yasalmasi uning tabiatidagi xususiyatini nomlash.

5. ... Anovi labchok (labi tikilgan) bola yo'q-ku! (N.Aminov)

6. Salom, Farhod, oshiqslaming siynachok (qalbi yaralangan) piri.

O'zbek adabiyotida M.Yusufning ijodida qo'shma okkazonal so'zlarni yaratish ko'p uchraydi. Masalan, o'zbekmomo, kiyiknigoh, kiyikso'qmoq, to'yko'cha, sohibdil, oyqovoq, kulko'rpa, lolayonoq, tillabarmoq, suvsumbul, arslonpanja kabi qo'shma so'zlar mahorat bilan qo'llanilgan.

Ingliz tilida okkazonal so'zlarni Dj.K.Roulingning "Garri Potter" asaridan keltirilgan misollar orqali ko'rib chiqamiz. Affiksatsiya yordamida yasalgan okkazonal so'zlar yasalishi:

1. "A Dementor", said Lupin, who was now giving chocolate to everyone else. (J.K.Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

"Dementor", - javob berdi Lyupin, boshqalarga shokolad tarqatib.

Dementor, okkazonal so'zi de- inkor prefiksi va lotin tilidagi ot so'z turkumida "mentis" – "fikrlash" degan ma'noni bildiradi. Tarjimada "dementor" yoki "aqlidan ozdiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Muallif qahramonga salbiy xarakter berish uchun ishlatgan.

2. There are seven players on each side. Three of them are called Chasers. (J.K.Rowling. Harry Potter and the philosopher's Stone)

Har bir tarafdagi etti tadan o'yinchi o'ynaydi. Ulardan uch tasi ovchi deb ataladi.

Bu misolda chaser so'zi chase – poylamoq va -er shaxs oti yasovchi qo'shimcha yordamida yasalmog'da. Bu so'z ovchi ma'nosida ishlatilmoqda. Asarda esa muallif bu so'z "biror narsani ovlamoq" semantikasini saqlab qolgan. O'yinda guruhning uchta ovchisi kvoffl uchun asosiy jangni olib boradi. Ular to'pni raqib jamoaning darvozasi ishg'ol qilish uchun bir-birlariga oshiradilar. Mana shu o'rinda muallif bu so'zdan okkazonalizm tariqasida foydalangan. Bu so'zni uzundan-uzun ta'riflamay oddiygina ovchi so'zi bilan ifodalagan.

3. «Potter, this is Oliver Wood. Wood – I've found you a Seeker». (J.K.Rowling. Harry Potter and the philosopher's Stone)

"Potter, bu Oliver Vud. Vud – men sizlarga ushlovchi topdim".

Bu misolda ham yuqoridagi singari seek – qidirmoq va -er shaxs oti yasovchi qo'shimchalar ishtirok etgan. Bu so'z ingliz lug'atida mavjud, lekin asarda u muallif tomonidan yaratilgan

okkazional soʻz boʻlib kelmoqda. *Ushlovchi* – *Kviddich* oʻynining ishtirokchisi. Uning vazifasiga oltin snitchni aniqlash va raqib jamoaning ushlovchisidan avval tutib olish kiradi.

4. *You're going to degnome the garden for me; they're getting completely out of hand again.* (J.K.Rowling. Harry Potter and the Chamber of Secrets)

Sen men uchun bog'dan gnomlarni haydaysan, ular yana butunlay qo'ldan chiqib ketishmoqda.

Muallif bog'dan gnomlarni chiqarishni ifodalashda to *degnome* okkazional fe'lini ishlatmoqda. Bu soʻz *de-* inkor ma'noli prefiks va *gnome-gnom* otidan iborat. Birgina inkor prefiksi orqali butun boshli ish harakat aks ettirilmoqda. Bu okkazional soʻz ham muallif tomonidan yaratilgan.

Ingliz tilida okkazional qoʻshma soʻzlar:

1. *As the lock clicked behind them, Harry and Hermione crept back to their own beds, Hermione tucking the Time-Turner back under her robes.* (J.K.Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

Orqalaridan qulf ovozi eshitildi, Garri va Germiona oʻz oʻrinlariga qaytdilar, Germiona vaqt qaytargichni mantiyasining ostiga yashirdi.

Time-Turner ikkita soʻz qoʻshilmasidan *time-vaqt* va *turner* – *qaytaruvchi uskuna* maʼnosida. Asarda bu soʻz vaqt qaytargich maʼnosida ishlatilmoqda. Bu yerda muallif vaqt boʻylab sayohat qilish mashinasi kabi yangi okkazional soʻzni yaratmoqda.

2. *"So Black was the Potters' Secret-Keeper?" whispered Madam Rosmerta.* (J.K.Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

"Demak, Blek, Potterlar oilasining sir saqllovchisi bo'lgan ekanda?" shivirladi Madam Rosmerta.

Ushbu okkazional qoʻshma soʻz *Secret* – *sir* va *Keeper* – *saqllovchi* soʻzlaridan tashkil topgan. Ingliz tilida *the keeper of secrets* – sirlarni saqllovchi birikmasi mavjud. Ammo muallif oʻz asarida sirga urgʻu berishi va oilaning maxsus sir-saqllovchi insoni borligiga ishora qilmoqda.

3. *"It's a Remembrall!" he explained* - (J.K.Rowling. Harry Potter and the philosopher's Stone)

"Bu yodga soluvchi!" u tushuntirdi.

Bu okkazional qoʻshma soʻz yozuvchining ijodiy mahsulidir. *Remember* – *yodga olmoq* (qoʻshma soʻzda bir maromda talaffuz etilishi uchun e unlisi tushurib qoldirilgan) va *all-hamma* olmoshidan tarkib topgan. Ushbu soʻzning tarjimasida bir qancha variantlar bor: *barchasini yodga soluvchi*, *eslatgich* va boshqalar. Dj.K.Rouling ingliz tilida barchasini eslatuvchi sharga qisqa va loʻnda *"remembrall"* deb nom beradi.

4. *"Or we could have a game of chess" he said hastily, or Gobstones. Percy left a set"* (J.K.Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

Balkim, shaxmat o'ynarmiz? – Ron shoshib taklif qildi yoki toshga-tuflash. Persi menga o'yin toplamini tashlab ketgan.

Bu okkazional qoʻshma soʻz ham muallif tomonidan yaratilgan *gob* – *katta bo'lak, bir uyum kir, tuflash*. *Stone* – *tosh* soʻzlaridan iborat. Muallif bu qoʻshma soʻz orqali toshga-tuflash o'yinini yaratadi, ammo bularning bari toʻqima boʻlib, real hayotda mavjud emasdir.

5. *By the sound of it – everywhere. Dervish and Banges, the wizarding equipment shop, Zonko's Joke Shop, into the Three Broomsticks for foaming mugs of hot butterbeer, and many places besides.* (J.K.Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

Do'stlar qayerlarda bo'lishmadi! "Dervish va Bengz"ning sehrli narsalar do'konda, "Zonkoning hazillar do'konida", "Uch supurgi" barida qaynoq, saryog'li pivo ko'pikli qadahlari uchun va yana boshqa ko'p joylarda.

Butterbeer – okkazional qoʻshma soʻz *butter-saryog'* va *beer-pivo* soʻzlarining qoʻshilmasidan tashkil topgan. Bunda muallif L.Karrol singari bir-biriga mos boʻlmagan ta'mlarni birlashtiradi. Bu qoʻshma soʻzni yaratishda muallif *butter scotch* – *shotlanacha viski* soʻzidan andoza olgan boʻlishi mumkin. Ammo uning tarjimasida *yog'li viski* emas.

9. *His heart gave a huge bound as he ripped back the paper and saw a sleek black leather case, with silver words stamped across it, reading Broomstick Servicing Kit.* (J.K.Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

TILSHUNOSLIK

U qog'ozni yirtib, kumush harflar bilan bo'rttirib yozilgan "Supurgi parvarishlash to'plami" silliq, qora, charm sumkani ko'rganida yuragi sakrab tushdi.

Bu okkazionalizm qo'shma so'z va so'z birikmasidan tarkib topgan. *Broom* – supurgi va *stick* – kaltak. Sehrgarlarning uzun supurgisi ingliz tilida *broomstick* (kaltakli supurgi) tarzida ifoda etilgan. *Servicing kit* – xizmat ko'rsatish to'plami, ya'ni *customer track service kit* – yuk mashina mijozlariga xizmat ko'rsatish to'plami mavjud bo'lgani kabi yozuvchi asar mohiyatidan kelib chiqqan holda yangi xizmat ko'rsatish usulini yaratdi.

XULOSA

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlar badiiy adabiyotda muallifning his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini, emotsional ruhiy holatini, asarning stilistik bo'yoqdorligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida yaratiladi. Okkazional so'zlar har ikki tilda so'z yasallashining affiksali va qo'shma so'z ko'rinishida mavjud. Okkazional so'zlar ot so'z turkumi doirasida har ikki tilda mahsuldor hisoblanadi. Qo'shma okkazional so'zlarning emotsional-ekspressivlik mohiyati affiksali qo'shma so'zlarga nisbatan kuchliroq ekanligi kuzatiladi. Ingliz tilida prefikslar yordamida ham okkazional so'zlar yasallash hodisasi mavjud bo'lib, u butun bir gapning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абросимова Л.С. Словообразование в языковой категоризации мира. Монография. – Ростов-на-Дону: Издательство южного федерального университета, 2015 г. – 330 с.
2. Антюфеева Ю.Н. Английские новообразования в развитии: потенциальное слово, окказионализм, неологизм. Автореф. дисс... канд. Филол. наук. – Белгород, 2004. – 19 с.
2. Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясашиши: Филол. фан. номз. ... дисс. –Тошкент, 1998. – 136 б.
3. Хохлачева В.Н. Индивидуально-оценочное словообразование в русском литературном языке XIX века (имена существительные). – В.кн.Материалы исследования по истории русского литературного языка. – т V. – М., 1962. – 169-171 б.
4. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент, 2002. – 158 б.
5. Чиркова Е.К. О критериях отграничения окказиональных слов от новых слов литературного языка // Современная русская лексикография. – Л.: Наука, 1975. – С. 91-100.